



UO'K: 323.2:352-048.32(575.1)

“OBOD VA XAVFSIZ MAHALLA” TAMOYILINING XAVFSIZ MUHITNI YARATISHDAGI O‘ZIGA XOS MEXANIZMLARI”**“УНИКАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИНЦИПА «ПРОЦВЕТАЮЩЕЕ И БЕЗОПАСНОЕ СОСЕДСТВО» В СОЗДАНИИ БЕЗОПАСНОЙ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ”****“THE UNIQUE MECHANISMS OF THE “PROSPEROUS AND SAFE NEIGHBORHOOD” PRINCIPLE IN CREATING A SAFE ENVIRONMENT”****Raximov Iloxomjon Azimjonovich**

Farg‘ona politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar va sport kafedrası”

Annotatsiya

Maqolada so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda “Obod va xavfsiz mahalla” tushunchasining mazmun-mohiyati, “Xavfsiz mahalla” tizimining o‘z–o‘zini boshqarish tuzilmasidagi ahamiyati, favqulodda vaziyatlarda mahalla aholisining bunday vaziyatlarga tayyorgarlik masalalari, mahallalarda jinoyatchilikni oldini olish borasidagi “Xavfsiz mahalla” kontsepsiyasini o‘rganishni maqsad qilib olinadi.

Tadqiqot metodlari olib borishda muammoga doir siyosiy, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, statistik ma‘lumotlarni tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari Mamlakatimizda “Obod va xavfsiz mahalla” tizimining mahallalarda joriy qilinishi yuzasidan takliflar berilgan.

Аннотация

Статья призвана изучить содержание понятия “Благополучная и безопасная Махалля” в новом Узбекистане за последние годы, значение системы “Безопасная Махалля” в структуре самоуправления, вопросы подготовки населения махалли к таким ситуациям в чрезвычайных ситуациях, концепции “Безопасная Махалля” по профилактике преступности в махаллях.

При проведении исследований использовались методы сравнительно-критического изучения политической, педагогической литературы по проблеме, анализа статистических данных.

По результатам исследования в нашей стране даны предложения по внедрению системы “процветающая и безопасная Махалля” в махаллях.

Abstract

The article aims to study the content of the concept of “Safe and secure Mahalla” in new Uzbekistan in recent years, the importance of the “Safe Mahalla” system in the structure of self-government, the issues of preparing the population of the mahalla for such situations in emergency situations, the concept of “Safe Mahalla” for the prevention of crime in mahallas.

During the research, methods of comparative and critical study of political and pedagogical literature on the problem, analysis of statistical data were used.

According to the results of the study, proposals have been made in our country for the implementation of the “prosperous and safe Mahalla” system in mahallas.

Kalit so‘zlar: “Obod va xavfsiz mahalla”, “Favqulodda vaziyat”, Xalq qabulxonasi”, Fuqaro muhofazasi, “Fidokor yoshlar”, “mahallabay”.

Ключевые слова: “Благополучный и безопасный микрорайон”, “Чрезвычайная ситуация”, “Общественная приемная”, “Гражданская молодежь”, “Самоотверженная молодежь”, “Махаллабай”.

Key words: “Prosperous and safe neighborhood”, “Emergency situation”, “People’s reception”, “Civil protection”, “Selfless youth”, “mahallabay”.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonni yangi maqsadlar sari safarbar etish va mahallalarda tinchlikni ta‘minlash, shuningdek, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyillarini joriy etish davlatimiz siyosatining bosh mezonini ekanligi hech kimga sir emas. Chunki, bugungi dunyoda o‘zaro ishonch va bir-birini tushunish taqchilligi sezilayotgan, qarama-qarshiliklar, xavfsizlikka nisbatan ko‘plab tahdidlar kuchaygan sharoitda, tinchlik masalasini o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalla va oilalar tinchligidan boshlash zaruriyatini yuzaga kelturmoqda. Darhaqiqat, inson qadr-qimmatini, eng avvalo, mahallada namoyon bo‘lishi bilan birgalikda, aholiga, oilalarga eng yaqin xalqchil tuzilma

sifatida ko'makchi vazifasini ham bajaradi. Mahallalar qanchalik tinch va obod bo'lsagina mamlakat ravnaq topadi aholisi farovon yashaydi. Zero, Vatan-ostonadan boshlanadi, degan ibora bejiz aytilmagan. Bu esa mazkur boshqaruv tuzilmaning jamiyat hayotini osoyishtaligini ta'minlashda mustaqil institut sifatidagi o'rni va nufuzi tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotganligini tasdiqlamoqda. Bu borada "Obod mahalla", "Obod xonadon", "Obod ko'cha" tamoyillarining mamlakatimiz mahallalariga joriy qilinishi ushbu tuzilmalarning ish faoliyatlari uchun juda katta turtki berayotganligini ta'kidlash joizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotni olib borishda muammoga doir siyosiy, ijtimoiy adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil etish, solishtirma usullaridan foydalanilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan mahalla faoliyatini takomillashtirish doirasida olib borilayotgan islohotlarning ilmiy-amaliy asoslarini mustahkamlash maqsadida Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahalla tizimini rivojlantirish va jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etishning 2020–2024-yillarga mo'ljallangan konsepsiyada fuqarolar yig'inlarining faoliyatiga xos bo'lmagan 50 dan ortiq vazifa bekor qilinishi, profilaktika inspektorlariga o'z vazifasiga kirmaydigan ortiqcha topshiriqlar ham keskin qisqartirilishi belgilandi[1]. Darhaqiqat, shu vaqtga qadar mahalla fuqarolar yig'ini raisi va profilaktika inspektorlari o'z vakolatlariga kirmaydigan vazifalarga jalb qilinishi, ular uchun yig'ilishbozlik va yo'riqnomalarning ko'payishi natijasida, mahalla hududidagi oilalarni o'rganish, huquqbuzarliklar keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish masalalarida sustkashliklarning yo'l qo'yilishiga sabab bo'lmoqda edi. Masalan, mahallalar uchun atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish, veterinariya sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish, zayomdan foydalanishning butun davrida zayomdan samarali va maqsadli foydalanishning doimiy monitoringini olib borish kabi vazifalarni yuklanganligini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmoniga ko'ra jamiyatning noyob ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutida mahalla yettiligi faoliyati aniq vazifalari bilan belgilab qo'yildi. Bu borada "Mahalla yettiligi" doirasida xotin-qizlar faoli "Sog'lom oila - sog'lom jamiyat" tamoyillarini targ'ib qilish, xususan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohning oldini olish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishi ko'zda tutilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Xavfsiz mahalla" kontsepsiyasi doirasida oilaviy ajrimlar masalasi ham bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Zero, oilaviy ajrimlar qancha kam bo'lsa, ana shu mahallada tinchlik xotirjamlik hukm suradi. Afsuski, bugungi kunda mahallalarda oilaviy masalalar bilan shug'ullanish o'z holiga tashlab qo'yilgan bo'lib, bunday holat mahallalarda ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir qilib, "xavfsiz mahallalar" "xavfli mahallalarga" aylanib qolishmoqda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi joriy etilgan bo'lsada, ulardagi vakolat masalasi bu jarayonlarga ta'sir qilish imkonini bermayapti. Buning sababi esa ushbu komissiyalarning jamoatchilik asosida faoliyat yuritishidadur. Ushbu komissiyalarda iqtisodiy manfaatdorlik bo'lmagandan keyin o'z vazifasiga javobgarlik hissi ham bo'lmaydi. Aslida, "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonning qabul qilinishi ham ushbu muammolarga yechim sifatida qarash muhim ahamiyatga egadir. Farmon doirasida, xotin-qizlar faoli har oyda kamida 20 ta oilaga kirib, oilaviy qadriyatlarni targ'ib etadi va nikohlarning qonuniyligini ta'minlaydi. Ushbu jihatlar "Xavfsiz mahalla" kontsepsiyasining to'laqonli indikatorlariga javob beradi.

Biz bir haqiqatni tan olishimiz kerak, "xavfsiz mahalla" deganda biz faqat, jinoyat sodir etilmagan mahalla deb emas, balki favqulodda vaziyatlarda mahalla aholisining bunday vaziyatlarga tayyorgarlik masalalari, ularning bu boradagi bilim va malakalarini shakllanish jarayonlari qay darajada ekanligini atroflicha tahlil etish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi globballashuv asrida dunyoda hamda mamlakatimizda yildan-yilga favqulodda vaziyatlar (suv toshqinlari, zilzila, shamol va hokozolar) soni ortib borayotganligini bu boradagi statistik tahlillar ham ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha

SIYOSAT

Boshqarmasi (UNISDR) tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, so'nggi yigirma yil (2000-2020-yy.) mobaynida dunyoda tabiiy ofatlar soni ikki baravarga oshgan. Ular oqibatida millionlab insonlar halok bo'lgan, 4,2 milliard kishi jabrlangan. Dunyo iqtisodiyoti 3 trillion AQSH dollari miqdorida zarar ko'rgan[2]. Masalan, 2020-2021-yillarning o'zida yurtimizda juda katta ko'lamdagi halokat Sardoba suv omborini buzilishi, Buxoro viloyatidagi kuchli shamollar, yurtimizdagi epidemiologik vaziyatlarning keskinlashuvi, is gazidan zaharlanish shular jumlasidandir. Jabrlanganlar va vafot etganlar orasida butun boshli oilalarning ham borligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu talofatlardan mahalla aholisini hayoti va mol mulkini himoya qilishni, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalari va mahalla aholisini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishni boshqarish texnologiyasini takomillashtirishni hayotni o'zi taqazo etmoqda. Mahalla aholisini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va boshqarishni tashkil etish, bu borada aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish vakolatiga ega rahbarlar va mansabdor shaxslar tomonidan ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fuqarolarni favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakat qilishga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, aholi, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan muloqotlarni mustahkamlash va kengaytirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida o'zaro hamkorlikni ta'minlashdek vazifalarni belgilab olish muhimdir.

Shuningdek, sayyoramizda zilzilalar soni yil davomida bir necha yuz mingga yetishi mumkin. Shulardan aksariyat qismi seysmografargina sezadigan kuchsiz zilzilalar bo'lsa, odamlar sezadiganlari bir necha mingga, iqtisodiyot tarmoqlari va obektlariga zarar yetkazadigan zilzilalar esa bir necha o'ndan bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin[4]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dunyo olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar va ko'plab ixtirolarga qaramasdan hozirgi kunda jahonning hech bir mamlakatida zilzila haqida aniq ma'lumot beradigan tizim yaratilmagan. Shuning uchun yer silkinishining aniq vaqti, kuchi va joyini ayta oladigan uslub va texnologiyalar hozircha dunyoda kashf etilgani yo'q. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida seysmik xavfsizlikni har tamonlama ta'minlash maqsadida seysmologiya va seysmik chidamli qurilish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlar o'tkazish, seysmik xavfni baholashda va zilzilalar darakhchilarini qayd qilishda foydalaniladigan stansiyalar tarmog'ining moddiy-texnika bazasi mustahkamlash, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish qatorida mamlakatimizda mahalla aholisining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash bo'yicha ham keng qamrovli chora-tadbirlar ko'rishni kechiktirmaslik lozim.

Bugungi kunda fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari mahallalarda "xavfsiz mahalla" tamoyilini amaliyotga tadbiq etish bo'yicha qator yutuqlarga erishayotganligiga qaramasdan, "xavfsiz mahalla" tamoyilining indikatorlariga to'liq javob bermayotgan quyidagi muammolar va hali-hamon saqlanib qolmoqda; birinchidan, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etilgan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligi, ikkinchidan, mahalla fuqarolar yig'ini raislari va profilaktika inspektorlari tomonidan individual tarzda notinch oilalarning nazorati yetarli darajada o'rganilmaganligi hamda manzilli ishlar olib borilmaganligi oqibatida sodir etilayotgan jinoyatlarning sezilarli darajada oshganligi; uchinchidan, voyaga yetmagan uyushmagan yoshlar va xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar xavflilik darajasi ortib borayotganini ta'kidlash joizdir. Shu bois, bugungi kunda "xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizimni samarali joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

- Mahalladagi yettilik faoliyati o'rtasidagi uzluksiz hamkorlikni kuchaytirish;
- Mahallalarni jinoyatdan holi hududga aylantirishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomaviy asosda aloqalarni yo'lga qo'yish;
- Jinoyatchilikni barvaqt oldini olishda «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhi imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- Aholi va odam savdosi bilan bog'liq jinoyat sodir etgan, shuningdek, jinoyat qurboni bo'lgan fuqarolar bilan odam savdosining salbiy omillari to'g'risida aniq maqsadli targ'ibot-tashviqot tadbirlarini ta'sirchanligini oshirish.

Davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotiga ko'ra, 2021-yil Respublikamizda 111082 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lsa, 2022-yilga kelib jami ro'yxatga olingan jinoyatlar soni

105215 tani tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 5867 taga jinoyatlar soni kamayganligi "Xavfsiz mahallalar" soni ko'payganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi statistik tahlildan shuni anglash mumkinki, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili ijroga joriy etilishi orqasidan avvalgi yillarda jinoyatchilik eng ko'p qayd etilgan Toshkent shahri va Farg'ona viloyatlarida o'tgan 1 yil davomida juda katta ijobiy o'zgarish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan; Toshkent shahri 1 yil davomida jinoyatchilik 2752 taga Farg'onada esa 4721 taga kamayganligini o'zi joylarda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili qanchalik foyda bera boshlaganidan dalolat beradi. Shu o'rinda "Xavfsiz mahalla" tamoyilini samarasi ko'p jihatdan mahalladagi profilaktika inspektorining faoliyati va mahalla jamoasi bilan samarali hamkorligiga bog'liqdir. Mahallalarda jinoyat sodir etilmasligi yoki uni oldini olish bo'yicha asosiy mas'uliyat profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatiladi. Ular mahallada o'z xizmat vazifalarini bajarishga kirishishlari bilanoq eng avvalo, mahallada yashovchi har bir fuqaroning, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan shaxslarning turmush tarzini, mavjud muammolarini o'rganishi shuningdek, ana shu mahallaning mentaliteti kayfiyatidan kelib chiqqqan holda ish yuritishi zarur. Har bir fuqaro ongiga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek, jamiyatda qabul qilingan etika qoidalari yurish-turish me'yorlarini singdirishi kerak. Ayniqsa, Profilaktika inspektori, har bir muammoni mahallaning o'zida aniqlab, bartaraf qilish choralarini ko'rsa, zarar ko'lam ham katta bo'lib ketmasligiga xizmat qiladi. Mahalla raisidan tortib profilaktika inpektorigacha muqaddam sudlanganlar, Ichki Ishlar nazoratida turganlar, jamiyatdagi umumiy qoidalarni doimo buzib turuvchi shaxslar, spirtli ichimlik va giyohvandlik ta'siriga tushib qolgan fuqarolarni, yoshlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar bilan profilaktik suhbatlar tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmalari rahbarligi tugatilib, o'rniga profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari vazifasi joriy etildi. Unga aholi bilan muloqotga kirishuvchan, tashabbuskor, tashkilotchi yoshlar qabul qilindi. Jumladan, "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlarini tashkil etish borasida Toshkent shahri tajribasi yurtimizning barcha mahallalarida joriy etildi. Hozir yetti mingdan ziyod shunday jamoatchilik patrul guruhi faoliyat yurityapti. Umuman olganda mahallalar faoliyatini yanada takomillashtirish doirasidagi ishlarni obodlik va xavfsizlik jihatlarini inobatga olish fuqarolik jamiyatini barpo etishga turtki bo'lishini ham alohida ta'kidlab o'tish muhimdir.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchidan, bugungi kunda O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonini tadqiq etish, xolisona baho berish bilan bog'liq;

ikkinchidan, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqaliy o'larni o'zini o'zi boshqarish organlaridagi faolligini oshirish;

uchinchidan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rnini va rolini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Bu borada esa quyidagi ishlarni amalga oshirish orqali ushbu institut faoliyatini yanada jonlantirish kerak;

– Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarollar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan mutasadi rahbarlarning avvalo huquqiy va siyosiy bilimni oshirish;

– Fuqarolar yig'inlari hamda Ovul fuqaro yig'inlarining raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarining maxalliy hokimiyat organlari bilan teng huquqlik asosida faoliyat olib borishlarining qonuniy asoslari ishlab chiqilganligini ularga tushintirib borish;

– Fuqaro yig'inlarida o'zlarining faoliyatini olib borayotgan rais va maslahatchilari uchun yilda bir marotaba o'qish tashkil qilinib, unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, senatorlarini va Quyi palata deputatlarini hamda yetakchi professor – o'qituvchilarni jalb etish darkor;

– Fuqaro yig'inlari oqsoqoliga saylovlar o'tkazilganda nomzodlarning jamiyatda tutgan o'rni, olib borgan mehnat faoliyatiga qarash bilan bir qatorda uning axloqiy, ma'naviy tarbiyasiga va bilim darajasiga, irodasiga, dunyo qarashiga alohida e'tiborni qaratmoq kerak. Binobarin, ma'nan yetuk ahloqqa ega bo'lgan insongina jamiyatni to'g'ri yo'lga boshlamog'i va yetaklashi mumkin.

SIYOSAT

- Dunyodagi jiddiy xavf-xatarlar, geosiyosiy tahdidlar sharoitida mahallalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish asnosida "Mening mahallamda jinoyat sodir bo'lmagligi kerak" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam ravishda tashkillash kerak;
- Mahallalarda "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasining tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdagi ahamiyati nuqtai nazaridan ushbu tuzilmani qaytadan tiklash maqsadga muvofiq;
- Favqulodda vaziyatlarda mahalla aholisining tayyorgarlik masalalari va ularning bu boradagi ko'nikmalarini kuchaytirish;
- Mahallalar qoshida jinoyatchilikka qarshi kurashish va ogohlikka qaratilgan bannerlarni joylashtirish;
- Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan tizimni shakllantirish maqsadida profilaktika inspektori ko'rib chiqadigan ma'muriy huquqbuzarliklar sonini oshirish;
- Mahallalardagi to'liqsiz oila farzandlari yashash sharoitlarini o'rganish va tizimli tahlil qilish;
- Mahallalar hududidagi turli o'yingohlar (bilyard, tir, kompyuter, o'yinlari va shu kabilar) hizmat ko'rsatish vaqti chegarasiga va yosh chegaralarini qat'iy nazoratga olish va bu uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq;
- Mahallalarda huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan erkak va xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi bilan bog'liq tadbirlarni manzilli amalga oshirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-oktyabr kuni mahallalarni obod qilish va aholini o'ylantirayotgan masalalarni hal etish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan video selektor yig'ilishi. Aholi kayfiyati islohotlarimiz va siyosatimizni ko'zgusi. <https://president.uz/uz/lists/view/5599>
2. Ромашенко С.А. "ООН: Изменение климата увеличивает число природных катастроф" // <https://universe-tss.su/main/klimat/86817-oon-izmenenie-klimata-velichivaet-chislo-prirodnih-katastrof.html>. 2022
3. Сывороткин В.Л. "Землетрясение", научно-технический журнал "Пространство и время", 2(4)2011.– С.134-135.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni.
5. <https://stat.uz/uz/>.